STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	1009
Шакаров Зафар Гаффарович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	



IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI



Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: doniyor7962@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ipoteka kreditlarini moliyalashtirishning ilg'or xorijiy tajribalari o'rganiladi hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, AQSh va Rossiya mamlakatlarida qo'llanilayotgan ipoteka bozori modellarining afzalliklari, moliyaviy instrumentlar, ikkilamchi ipoteka bozori va davlat ishtirokining samarali shakllari ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish, aholi uchun qulay moliyaviy sharoitlar yaratish, shaffof va barqaror ipoteka moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda uy-joy bilan ta'minlash siyosatini yanada samarali olib borishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ipoteka krediti, ikkilamchi bozor, ipoteka bozori, xorijiy tajriba, ipoteka mexanizmlari.

Abstract. This article examines the advanced international practices of mortgage lending financing and analyzes the possibilities of their application in the context of Uzbekistan. In particular, it considers the advantages of mortgage market models used in countries such as the United States and Russia, financial instruments, the secondary mortgage market, and effective forms of government participation. The paper provides proposals and recommendations for improving the mortgage lending system in Uzbekistan, creating favorable financial conditions for the population, and implementing transparent and sustainable mechanisms for mortgage financing. The research results can contribute to more effective implementation of the housing policy in Uzbekistan.

Key words: mortgage lending, secondary market, mortgage market, international experience, mortgage mechanisms.

Аннотация. В данной статье изучается передовой зарубежный опыт финансирования ипотечного кредитования и анализируются возможности его применения в условиях Узбекистана. В частности, рассматриваются преимущества моделей ипотечного рынка, применяемых в таких странах, как США и Россия, финансовые инструменты, рынок вторичной ипотеки, а также эффективные формы участия государства. В статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию системы ипотечного кредитования в Узбекистане, созданию благоприятных финансовых условий для населения и внедрению прозрачных и устойчивых механизмов ипотечного финансирования. Результаты исследования могут способствовать более эффективному проведению политики обеспечения населения жильём в Узбекистане.

Ключевые слова: ипотечный кредит, вторичный рынок, ипотечный рынок, зарубежный опыт, ипотечные механизмы.

KIRISH

Bugungi kunda ipoteka kreditlash tizimi dunyoning ko'plab mamlakatlarida aholining uy-joy bilan ta'minlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Xususan, xorijiy tajribada ipoteka kreditlashning turli modellarini shakllantirish orqali ularni har bir mamlakatning iqtisodiy sharoiti, moliyaviy infratuzilmasi va aholining real ehtiyojlariga mos ravishda yo'lga qo'yish tajribasi keng tarqalgan. Ushbu modellar insonning asosiy hayotiy ehtiyoji — ya'ni uy-joyga ega bo'lish istagi — va uning moliyaviy imkoniyatlari o'zaro uyg'unlashgan nuqtada shakllanadi.



Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ipoteka bozorining barqaror va samarali faoliyati nafaqat aholining turmush darajasini oshirishga, balki milliy iqtisodiyotning izchil o'sishiga ham sezilarli hissa qo'shadi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida ipoteka kreditlash tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy amaliyotlarni chuqur o'rganish va ularni mahalliy iqtisodiy realiyalarga moslashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlarning ipoteka krediti bo'yicha ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, A. G. Ivasenkoning fikriga ko'ra, "ipoteka — bu garov bo'lganda majburiyatni ta'minlashning bir usuli bo'lib, u ko'chmas mulkni garov predmeti sifatida ishlatadi"¹.

Iqtisodchi olimlar A. A. Yakovlev va I. A. Blagix ta'kidlaganidek, "ipoteka krediti — bu garovni davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali garovga oluvchining huquqlarini qo'shimcha himoya qilish zarurati hamda iste'mol mulkini ko'chmas mulk obyekti sifatida uzoq muddat davomida saqlab turish imkoniyati bilan ajralib turadigan kredit shaklidir"².

Bu borada iqtisodchi olim O. Beregulya "ipoteka — bu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli bo'lib, garov predmeti sifatidagi ko'chmas mulk garovga oluvchi yoki uchinchi shaxs foydalanishida qoladi"³, deb ta'kidlaydi.

I. A. Razumovanning fikriga ko'ra, ipoteka qarzdorning majburiyatlarini mulkiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri bo'lib, unda ko'chmas mulk qarzdorning mulki sifatida qoladi. Agar qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmasa, ushbu mulk kreditorning mulkiga o'tadi⁴.

Professor O. I. Lavrushin ta'kidlaganidek, "ipotekali kredit — bu ko'chmas mulk yoki yer maydoni garovi ostida beriladigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida faol qo'llaniladigan kredit shaklidir. Yer mulkiga ega bo'lgan tashkilotlar hamda ixtiyorida xususiylashtirilgan xonadon (kvartira) yoki yer maydoni mavjud aholiga bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan kredit munosabatlariga kirishish imkonini beradi"⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida ipoteka kreditlarini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari tizimli ravishda o'rganilib, ularni baholash mezonlari asosida chuqur tahlil qilindi. Tahlil jarayonida statistik, taqqoslama va kombinatsion usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu ilmiy yondashuvlar yordamida olingan natijalar asosida xolis xulosalar ishlab chiqilib, amaliyotga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ipoteka kreditlash tizimi bugungi kunda ko'plab xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Xorijiy tajribada ipoteka kreditlashning bir qator modellari shakllangan bo'lib, ularning barchasi insonning uy-joyga bo'lgan ehtiyoji va moliyaviy imkoniyatlari o'zaro kesishgan nuqtada vujudga kelgan.

Bugungi kunda Yevropa va MDH mamlakatlarida ipoteka kreditlash uy-joy bozorini moliyalashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida ipoteka tizimining ommalashuvi, avvalo, aholiga qulay shartlarda kredit olish imkoniyatining kengligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ipoteka kreditlash uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, samarali moliyaviy vosita sifatida o'zini to'liq namoyon qilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ipoteka kreditlash hajmi uy-joy bozorini moliyalashtirishning umumiy hajmining taxminan 90 foizini tashkil etadi, ipoteka foiz stavkalari esa 1,9–5 foiz oralig'ida.

Rossiyada ham ipoteka tizimi aholining uy-joy bilan ta'minlanishida muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatda ipoteka kreditlash hajmi uy-joy bozorini moliyalashtirishning umumiy hajmining 70 foizini tashkil etadi, ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari esa 6,75–13 foiz oralig'ida. So'nggi yillarda Rossiyada ipoteka kreditlari orqali aholining arzon va sifatli uy-joyga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi davlat darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Rossiya kredit tizimining rivojlanishi va ipoteka modelining takomillashuvi xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali yanada mustahkamlanmoqda.

- 1 Ивасенко А.Г. Земельная ипотека: подходы к определению, функции и отличительные черты // Вестник Томского государственного университета. – 2013. – № 373. – С. 134–140.
- 2 Благих И.А., Яковлев А.А. Mortgage lending in the Russian Federation // Проблемы современной экономики. – 2010. – № 3. – С. 227–231.
- 3 Берегуля О. Ипотечное кредитование как банковская операция: теоретические основы и условия проведения // Вестник НБУ. – 2007. – № 10. – С. 46–48.
- 4 Разумова И.А. Ипотечное кредитование: Учебное пособие. – 2-е изд. – СПб.: Питер, 2006. – 208 с.
- 5 Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: Финансы и статистика, 2005. – 486 с.



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ipoteka kreditlarining keng joriy etilishi nafaqat uy-joy sifatining oshishiga, balki infratuzilmaning rivojlanishiga, urbanizatsiya jarayonining faollashishiga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁶.

O'zbekiston amaliyotida ipoteka kreditlashni yanada takomillashtirish maqsadida Yevropa va Rossiya tajribalarini tahlil qilish asosida xorijiy mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirish zarur. Shu maqsadda quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb hisoblanadi:

- ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini tizimli tahlil qilish;
- mamlakatimizda joriy etilishi mumkin bo'lgan ipoteka mexanizmlarini aniqlash;
- xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

AQSH ipoteka bozori dunyodagi eng yirik va rivojlangan bozorlar sirasiga kiradi. Bu mamlakatda ipoteka tizimi keng ko'lamli, ko'p qirrali hamda turli moliyaviy instrumentlardan foydalanishga asoslangan. AQSHda ipoteka bozori birlamchi va ikkilamchi bozor qismlaridan iborat. Birlamchi bozor to'g'ridan-to'g'ri qarz oluvchilar va kredit beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi, ikkilamchi bozor esa ipoteka majburiyatlarini qimmatli qog'ozlar asosida qayta moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Bunda ipoteka majburiyatlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqariladi. Mazkur mexanizm ipoteka kreditlash jarayonini moliyalashtirish va xizmat ko'rsatish bosqichlariga ajratish imkonini beradi. Bu tizim "ipoteka fragmentatsiyasi" yoki funksional bo'linish modeli sifatida tanilgan bo'lib, ipoteka bozorining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, uy-joy kommunal xizmatlarining ikki darajali modelini amalda qo'llash orqali AQSHda ipoteka kreditlash tizimi fuqarolarning uy-joy bilan ta'minlanish muammosini samarali hal etish imkonini beradi. Quyidagi jihatlar bunga asos bo'ladi:

Ipoteka kreditlari qayta moliyalashtirish va sug'urta tizimini hisobga olgan holda 30 yilgacha muddatga beriladi. Yosh toifasi 25 yoshdan boshlanadi, biroq kreditni to'lash muddati 75 yoshdan oshmasligi kerak.

Ipoteka kreditlari bo'yicha yillik foiz stavkasi kredit summasining 3,5–7 foizini tashkil etadi. Norezidentlar uchun kredit qiymati qaytarish xavfi yuqoriligi sababli 1–2 foizga oshiriladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, suzuvchi foiz stavkalari ipoteka banklari uchun eng samarali mexanizmlardan biridir⁷.

Banklar qarz oluvchilarga qaytarish kafolati asosida birlamchi uy-joy bozoridan yoki ikkilamchi ko'chmas mulk bozoridan uy xarid qilish uchun ipoteka kreditlari ajratadi⁸.

Ipoteka bozori keng va imkoniyatlarga boy bo'lib, potensial qarz oluvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Qarz beruvchi banklar boshlang'ich to'lov miqdorini mulk qiymatining 10–50 foizi orasida tanlash imkonini beradi, ayrim hollarda esa dastlabki to'lovsiz ipoteka kreditlari ham taklif qilinadi⁹.

Rivojlangan uy-joy kommunal xizmatlari tizimi aholining turli ijtimoiy qatlamlariga keng ko'lamdagi ipoteka dasturlarini taqdim etadi. Hozirda AQSHda kam ta'minlanganlar, faxriylar, tabiiy ofat qurbonlari, pensionerlar, shuningdek energiya tejovchi texnologiyalardan faol foydalanayotgan aholi uchun maxsus ipoteka dasturlari amal qiladi.

Ipoteka kreditini rasmiylashtirish jarayonida mijozning barcha daromad manbalari hisobga olinadi va shu asosda bank tomonidan to'lov qobiliyati aniqlanadi¹⁰.

AQSHda ipoteka kreditlarini moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish mamlakatimiz sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda mijozlarga besh bosqichli maslahat tizimi qo'llanadi:

1-bosqich: Moliyaviy tayyorgarlikni baholash.

Mijoz uy izlashni boshlashdan avval o'z moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashi lozim. Buning uchun daromadlar, qarzarlar, jamg'armalar va boshqa moliyaviy majburiyatlar hisobga olinadi. So'ngra uy narxini aniqlash va budjetga mos oylik ipoteka to'lovlari hisoblash uchun maxsus kalkulyatordan foydalaniladi. Shu bilan birga, kredit balli (credit score) tekshiriladi va qarz-daromad nisbati tahlil qilinadi. Odatda mijozning umumiy oylik qarz to'lovlari yalpi oylik daromadining 36 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi.

Mijozning turmush tarziga mos to'lov modelini aniqlash uchun uchta yondashuv qo'llaniladi:

- birinchidan, daromad va xarajatlarni aniqlash orqali moliyaviy balansni belgilash;
- ikkinchidan, ustuvorliklarni aniqlash, xarajatlarni "zarur" va "afzal" toifalarga ajratish;
- uchinchidan, har oylik xarajatlarni kuzatib borish va budjetni muvozanatlash.

6 Erbas, V. W. Demand for Rural Finance Services // A Journal on Information Finance Markets. – 2005. – P. 78–92.

7 Ипотечные ставки в США [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://bankivpitere.ru/stati/1043-ipotechnnye-stavki-v-ssh>

8 Кредит в США: ставки, ипотека, кредит на машину и другие кредиты [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://immigrant.today/article/7443-kredit-v-ssha-stavki-ipoteka-kredit-na-mashinu-i-dругиеkredity.htm>

9 Коростелева Т.С., Кириллов А.В. Развитие системы ипотечного кредитования как инструмента решения жилищной проблемы граждан // Финансы и кредит. – 2012. – № 9. – С. 53–62.

10 Обзор системы ипотечного кредитования в США [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://biznesprost.ru/obzor-sistemy-ipotechnogokreditovaniya-v-ssha.html>



2-bosqich: Kreditni oldindan saralash.

Keyingi bosqichda mijoz kredit variantlari va joriy foiz stavkalari bo'yicha kreditor bilan uchrashadi. Kredit beruvchi mijozga oldindan kvalifikatsiya xatini taqdim etadi, unda bank tomonidan berilishi mumkin bo'lgan maksimal qarz miqdori ko'rsatiladi. Shuningdek, ipoteka uchun oldindan ma'qullanish (pre-approval) jarayoni amalga oshiriladi. Bu odatda 90 kun amal qiladigan, ma'lum miqdordagi qarzni olishga tayyorlikni bildiruvchi hujjat bo'lib, mijozning bozordagi ishonchligini oshiradi.

3-bosqich: Ko'chmas mulk agentlari bilan ishlash.

Mijoz o'zining moliyaviy imkoniyatlarini aniqlaganidan so'ng, mezonlariga mos uyni tanlash jarayonini soddalashtiradi. Onlayn platformalarda mavjud takliflarni tahlil qiladi va ko'chmas mulk agentidan faqat ehtiyojlariga hamda budjetiga mos obyektlarni tavsiya etishini so'raydi.

Agentlik mijozga o'zi xohlagan uyni tanlashda yordam beradi. Agar taklif qabul qilinsa, xarid shartnomasi tuziladi va odatda sotuv narxining 1 foizidan 3 foizigacha bo'lgan miqdorda mijoz majburiyatini tasdiqlovchi omonat depoziti ("asosiy pul") kiritiladi.

4-bosqich: Ipoteka shartnomasini rasmiylashtirish.

Taklif qabul qilingandan so'ng ipoteka uchun ariza topshirish jarayoni boshlanadi. Odatda, sotib olish shartnomasini amalga oshirish uchun mijozga 45–60 kun vaqt beriladi. Shu sababli, mijoz tezkor harakat qilishi, foiz stavkasini saqlab qolishi hamda bankka uy bahosini aniqlash uchun zarur vaqtni ta'minlashi lozim.

Ariza topshirilgandan keyin uch kun ichida kreditor mijozga taxminiy foiz stavkasi, oylik to'lov va yopilish xarajatlarini o'z ichiga olgan kredit smetasini taqdim etadi. Ushbu hujjat mijoz so'ragan kredit shartlarini aniq aks ettirganligini va foiz stavkasi belgilanganligini tekshirish uchun diqqat bilan o'rganiladi. Mijoz o'z daromadlari va aktivlarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim, bu esa bankka qarz to'lovlarini bajarish imkoniyatiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

5-bosqich: Ipoteka bitimini yakunlash.

Ipoteka krediti ma'qullangandan so'ng, yopilish sanasidan kamida uch ish kuni oldin mijoz yakunlovchi ma'lumot (final disclosure) oladi. Unda to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlar ro'yxati keltiriladi. Odatda bu to'lovlar uy narxining 2–5 foizini tashkil etadi. Mijoz hujjatlarni sinchiklab o'qib chiqishi, zarur hollarda kreditorga aniqlik kiritishi tavsiya etiladi. Yakuniy bosqichda mijoz shaxsini tasdiqlovchi hujjatni va to'lov uchun zarur mablag'ni taqdim etadi. Kredit yopilishi bir necha kun davom etadi, undan so'ng to'lov sotuvchiga o'tkaziladi va mijoz yangi uyning kalitlarini oladi.

AQSHdagi ipoteka kreditlarini moliyalashtirish mexanizmi mijozlarga o'z moliyaviy imkoniyatlarini to'g'ri baholash, banklarga esa muammoli kreditlarning oldini olish imkonini beradi. Ushbu tizimning afzalligi — qarz oluvchining to'lov qobiliyatini real baholash hamda kredit jarayonining shaffofligini ta'minlashidir.

Rossiya bank tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ipoteka kreditlari beradigan banklar soni umumiy banklar soniga mutanosib tarzda qisqarayotgan bo'lsa-da, ularning ulushi barqaror saqlanib qolmoqda. 2018–2024-yillar oralig'ida ipoteka kreditlari beruvchi banklar soni qariyb 100 taga kamaygan bo'lsa-da, kreditlashdagi ularning ulushi o'zgarmagan. Bugungi kunda Rossiya kredit tashkilotlarining taxminan 70 foizi aholiga ipoteka kreditlari xizmatlarini ko'rsatadi.

Ipoteka kreditlari banklar tomonidan aholiga berilgan kredit portfelining qariyb yarmiga teng bo'lib, naqd kreditlardan keyingi o'rinda turadi. Kredit kartalari esa ulush jihatidan ancha kichik miqdorni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. Rossiya banklarida kredit turlari bo'yicha ulushlarning dinamikasi (2020–2024-yillar, foiz hisobida)¹¹

Sana (yil, oy, kun)	Ipoteka krediti (%)	Maqsadsiz kredit (%)	Kredit kartasi (%)	Avtokredit (%)
01.01.2020	45,69	37,94	9,33	5,53
01.01.2021	48,49	36,86	8,36	5,16
01.01.2022	49,69	36,34	7,80	5,14
01.01.2023	52,74	33,08	8,61	4,66
01.01.2024	55,07	29,10	9,13	5,78

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Rossiya banklarining kredit portfeli tarkibida ipoteka kreditlarining ulushi nisbatan yuqori. Bu holat aholining uy-joy sotib olishga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu sababli Rossiyada davlat tomonidan ipoteka kreditlashni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

11 Frank Research Group. Ипотечный рынок России – данные и аналитика [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://frankrg.com/data-hub/category/mortgage/chart/29368>



Xususan, 2020-yil aprel oyida joriy etilgan yangi uy-joylar uchun imtiyozli ipoteka dasturi ipoteka bozorining faollashuviga va foiz stavkalarining minimal darajagacha pasayishiga olib keldi. Ushbu islohot aholining uy-joyga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ipoteka bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qildi (2-jadval).


2-jadval. Rossiyada o'rtacha ipoteka foiz stavkalari dinamikasi (2020–2024-yillar, foiz hisobida)¹²

Sana (yil, oy, kun)	Rossiyada o'rtacha ipoteka stavkasi (%)	Birlamchi bozorda o'rtacha ipoteka stavkasi (%)	Ikkilamchi bozorda o'rtacha ipoteka stavkasi (%)
01.01.2020	9,05	8,28	9,36
01.01.2021	7,36	5,83	8,02
01.01.2022	7,81	5,88	8,87
01.01.2023	6,65	3,50	9,20
01.01.2024	7,91	6,12	10,14

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan Rossiyada ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarish tendensiyasini kuzatish mumkin. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda Rossiyada o'rtacha ipoteka stavkasi 1,04 foizga pasaygan, birlamchi bozorda o'rtacha ipoteka stavkasi 2,16 foizga kamaygan, ikkilamchi bozorda esa 0,78 foizga oshgan.

Mazkur holat ipoteka bozorida raqobat kuchaygani, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining takomillashgani va imtiyozli ipoteka dasturlarining samarali joriy etilganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda Rossiya ipoteka bozori 20 ta yirik bank faoliyatiga tayanadi. Ipoteka kreditlari bilan xizmat ko'rsatadigan 300 ga yaqin bank mavjud bo'lib, ularning kredit portfeli mamlakatdagi umumiy kredit hajmining 5 foizdan kam qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, yirik banklar bozordagi asosiy ulushni egallab, ipoteka xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda (1-rasm).



1-rasm. Rossiyada ikkilamchi bozordagi ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasi (2020–2024-yillar)¹³

Ikkilamchi bozorda ipoteka kreditlari bo'yicha minimal foiz stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Ushbu shartlarda kvartira qiymati 6 million rubl bo'lib, kredit miqdori 4,2 million rublni tashkil etadi. Boshlang'ich to'lov mulk qiymatining 30 foiziga teng bo'lib, kredit 15 yil muddatga beriladi.

Bunday shartlar ikkilamchi bozorda ipoteka kreditlashning nisbatan barqaror mexanizmini shakllantirib, aholiga uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni qulay sharoitlarda amalga oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ipoteka kreditlarini moliyalashtirish jarayonida ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan, AQSHning ikki darajali modeli hamda Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan yondashuvlarini o'rganish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹² Frank Research Group. Ипотечный рынок России – данные и аналитика [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://frankrg.com/data-hub/category/mortgage/chart/29368>

¹³ Frank Research Group. Ипотечный рынок России – данные и аналитика [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://frankrg.com/data-hub/category/mortgage/chart/29368>



Rossiyada ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan birinchi va ikkinchi darajali modellarni parallel rivojlantirish g'oyasi ilgari surilmoqda. Mazkur yondashuv ipoteka bozorining barqarorligini ta'minlashda, kredit xavflarini kamaytirishda hamda moliyaviy tizimni diversifikatsiyalashda muhim o'rin tutadi.

Ipoteka bozorini shakllantirishda birinchi darajali modelning ustuvorligi — bu kredit xavfini kamaytirish, moliyaviy bozorlarda mustaqil institutlar orqali barqarorlikni ta'minlash va kapital aylanishini jadallashtirish imkoniyatidir. Ikkinchi darajali modelning afzalligi esa qarz oluvchilarning jamg'arma bosqichidagi moliyaviy holatini baholash orqali past foizli va barqaror moliyaviy mexanizmni shakllantirish imkonini berishidir.

Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni kengaytirish, aholi jamg'armalarini moliyaviy sektorga jalb etish, ipoteka bozorida ishtirokchilar sonini oshirish va moliyaviy savodxonlikni yuksaltirish uy-joy masalasini kompleks hal etish imkonini yaratmoqda. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida ham ipoteka moliyalashtirish tizimini yanada rivojlantirish, aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini oshirish va moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ивасенко А. Г. Земельная ипотека: подходы к определению, функции и отличительные черты // Вестник Томского государственного университета. — 2013. — № 373. — С. 134–140.
2. Благих И. А., Яковлев А. А. Mortgage lending in the Russian Federation // Проблемы современной экономики. — 2010. — № 3. — С. 227–231.
3. Берегуля О. Ипотечное кредитование как банковская операция: теоретические основы и условия проведения // Вестник НБУ. — 2007. — № 10. — С. 46–48.
4. Разумова И. А. Ипотечное кредитование: Учебное пособие. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 2006. — 208 с.
5. Лаврушин О. И. Банковское дело. — М.: Финансы и статистика, 2005. — 486 с.
6. Erbas, V. W. Demand for Rural Finance Services // A Journal on Information Finance Markets. — 2005. — P. 78–92.
7. Ипотечные ставки в США [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://bankivpitere.ru/stati/1043-ipotechnnye-stavki-v-ssh>
8. Кредит в США: ставки, ипотека, кредит на машину и другие кредиты [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://immigrant.today/article/7443-kredit-v-ssha-stavki-ipoteka-kredit-na-mashinu-i-drugie-kredity.htm>
9. Коростелева Т. С., Кириллов А. В. Развитие системы ипотечного кредитования как инструмента решения жилищной проблемы граждан // Финансы и кредит. — 2012. — № 9. — С. 53–62.
10. Обзор системы ипотечного кредитования в США [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://biznesprost.ru/obzor-sistemy-ipotechnogo-kreditovaniya-v-ssha.html>
11. Frank Research Group. Ипотечный рынок России — данные и аналитика [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://frankrg.com/data-hub/category/mortgage/chart/29368>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
